# O‘ZBEKISTON REPUBLIKASI TO‘LOV BALANSI, XALQARO INVESTITSIYAVIY MAVQEI VA TASHQI QARZI



## 2025
## I YARIM YILLIK

O‘ZBEKSITON RESPUBLIKASI
MARKAZIY BANKI
- 2025 -

| | |
|---|---|
| Bu qanday nashr? | Ushbu nashr 2025-yil I yarmi uchun O‘zbekiston to‘lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo‘yicha ma’lumotlarni o‘z ichiga olib, Xalqaro valyuta jamg‘armasining “To‘lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqe bo‘yicha qo‘llanmasi”ning oltinchi nashriga (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) hamda “Tashqi qarz statistikasi bo‘yicha qo‘llanma”ga (2013-y.) muvofiq tayyorlangan. |
| Ma’lumotlar qaysi sanaga dolzarb? | Ushbu nashrda keltirilgan statistik ma’lumotlar 2025-yil 30-sentabr holatiga dolzarb hisoblanadi. |
| Ma’lumotlarni qayerdan olish mumkin? | To‘lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo‘yicha tahliliy va standart ko‘rinishdagi statistik jadvallar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining http://www.cbu.uz/ va XVJning http://data.imf.org/ veb-saytlari orqali taqdim qilinmoqda. |
| Nashrga taalluqli savol va takliflar bo‘yicha qanday murojaat qilish mumkin? | **O.O. Tojiddinov**<br>*Valyutani tartibga solish va to‘lov balansi departamenti direktori*<br>(+998) 71 212-60-38 o.tojiddinov@cbu.uz<br>**Sh.X. Xayitboyev**<br>*To‘lov balansi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari*<br>(+998) 71 212-60-42 sh.khayitboev@cbu.uz<br>Shuningdek, savollar va takliflar qo‘shimcha ravishda val@cbu.uz elektron pochta manziliga yuborilishi mumkin. |

## QISQACHA SHARH

2025-yilning I yarmida xalqaro savdo siyosatining keskinlashuvi va global noaniqliklar ortishiga qaramasdan, O‘zbekiston tashqi sektori an’anaviy eksport mahsulotlari jahon narxlarining o‘sishi, shuningdek tashqi mehnat migratsiyasi va turizm yo‘nalishlaridagi ijobiy tendensiyalar ta’sirida o‘zining muvozanat holatiga yaqinlashdi.

Jumladan, **joriy operatsiyalar hisobi** 156,3 mln dollar manfiy saldo bilan shakllandi *(2024-yilning I yarmida qariyb 2,9 mlrd doll)*. Bu savdo balansi taqchilligining sezilarli darajada qisqarishi hamda xorijdan O‘zbekistonga xalqaro pul o‘tkazmalari hajmining oshishi bilan izohlanadi.

Eksport hajmining importga nisbatan yuqoriroq sur’atlarda o‘sishi natijasida **savdo balansining manfiy saldosi** o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 20 foizga qisqarib, 6,4 mlrd dollarni tashkil qildi.

Xususan, **jami eksport** hajmi 29 foizga oshib, 16,6 mlrd dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, **jami import** hajmi 10 foizlik o‘sish bilan qariyb 23 mlrd dollarga yetdi.

2025-yilning I yarmi davomida O‘zbekistonga kelib tushgan xalqaro pul o‘tkazmalar hajmining o‘sishi **birlamchi va ikkilamchi daromadlar** balansi ijobiy saldo *(mos ravishda 850,9 mln doll va 5,4 mlrd doll)* bilan shakllanishiga sabab bo‘ldi.

**Joriy operatsiyalar hisobi komponentlari**

*YaIMga nisbatan foizda*



Joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri, portfel va boshqa investitsiyalar jalb qilinishi hisobiga moliyalashtirildi.

Jumladan, 2025-yilning I yarmi davomida mamlakatga **to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning sof kiritilishi**[1] 2024-yilning mos davriga nisbatan 42 foizga o‘sib, 1,6 mlrd dollarga teng bo‘ldi.

**Portfel investitsiyalarning sof jalb qilinishi** asosan xalqaro obligatsiyalar bilan bog‘liq operatsiyalar hisobiga 3,1 mlrd dollarni tashkil qildi.

Yuqoridagi tarkibiy omillar hisobiga hisobot davri yakuni bo‘yicha **moliyaviy hisob** manfiy saldosi **895,9 mln** dollarni tashkil etdi.

**Moliyaviy hisob komponentlari**

*YaIMga nisbatan foizda*




2025-yilning I yarmida **xalqaro zaxira aktivlarining** xorijiy valyutadagi qismi 913,1 mln dollarga ko‘payishi kuzatildi. Shuningdek, oltin jahon narxining yuqori sur’atlarda o‘sishi natijasida xalqaro zaxiralar qoldig‘i joriy yil boshiga nisbatan qariyb 7,4 mlrd dollarga ko‘payib, 2025-yilning 1-iyul holatiga **48,5 mlrd** dollarni tashkil qildi.

To‘lov balansida aks etgan amaliyotlar va nooperatsiyaviy o‘zgarishlar ta’sirida O‘zbekistonning **sof xalqaro investitsiyaviy mavqei** joriy yil boshiga nisbatan **23 foizga** mustahkamlanib, 2025-yil 1-iyul holatiga **16,9 mlrd** dollarga yetdi.

---

[1] *To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bo‘yicha ma’lumotlar Xalqaro valyuta jamg‘armasining qo‘llanmasiga (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) muvofiq sof hajmlarda (investitsiya kiritilishi va repatriatsiyasi o‘rtasidagi saldo) aks ettiriladi.*

Bunda, rezidentlarning chet el valyutasidagi aktivlari hajmi yil boshiga nisbatan 12,1 mlrd dollarga *(13 foiz)* hamda tashqi majburiyatlari hajmi 8,9 mlrd dollarga *(11 foiz)* ko‘paydi.

2025-yilning I yarmi yakuniga ko‘ra, **umumiy tashqi qarz** hajmi **72,2 mlrd** dollarni tashkil qilib, shundan davlat tashqi qarzi hajmi 36,8 mlrd dollar[2] hamda korporativ tashqi qarz hajmi 35,4 mlrd dollarga teng bo‘ldi.

*Ma’lumot uchun: korporativ tashqi qarz tarkibida xususiy sektor, jumladan tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat kafolatisiz jalb etilgan tashqi qarzlar aks ettiriladi. Shu o‘rinda, XVJ hamda xalqaro reyting agentliklari bayonotlarida O‘zbekistonning tashqi qarz yuki o‘rtacha darajada ekanligi (asosan imtiyozli shartlarda olingan) e’tirof etilgan.*

*Markaziy bank O‘zbekiston to‘lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei va tashqi qarz ko‘rsatkichlarini shakllantirish doirasidagi hamkorlik uchun tegishli vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarga o‘z minnatdorchiligini bildiradi.*

[2] *XVJning TBQ 6-son qo‘llanmasiga muvofiq davlat tashqi qarzi qoldig‘i hisoblangan, lekin to‘lanmagan foizlarni ham o‘z ichiga oladi.*

## 1-ilova. 2023-2025-yillarning I yarmi uchun to‘lov balansi

*(tahliliy ko‘rinishi)*

*(mln dollar)*

| Ko‘rsatkichlar | 2023-yil I yarmi | 2024-yil I yarmi | 2025-yil I yarmi |
|---|---|---|---|
| **A. Joriy operatsiyalar hisobi saldosi** | **-2 852,7** | **-2 853,0** | **-156,3** |
| Tovarlar, kredit (eksport) | 10 078,7 | 9 905,8 | 12 673,3 |
| Tovarlar, debet (import) | 16 177,6 | 16 055,0 | 16 750,5 |
| Xizmatlar, kredit (eksport) | 2 344,4 | 2 972,4 | 3 902,5 |
| Xizmatlar, debet (import) | 3 704,3 | 4 815,5 | 6 206,4 |
| *Savdo balansi saldosi* | -7 458,8 | -7 992,2 | -6 381,3 |
| Birlamchi daromadlar, kredit | 2 758,4 | 2 881,8 | 3 543,2 |
| Birlamchi daromadlar, debet | 1 887,8 | 2 063,4 | 2 692,3 |
| *Savdo balansi va birlamchi daromadlar saldosi* | -6 588,2 | -7 173,8 | -5 530,4 |
| Ikkilamchi daromadlar, kredit | 4 194,6 | 4 829,4 | 6 087,7 |
| Ikkilamchi daromadlar, debet | 459,0 | 508,6 | 713,6 |
| **B. Kapital operatsiyalari hisobi** | **2,8** | **0,5** | **8,5** |
| Kapital operatsiyalar hisobi, kredit | 2,8 | 0,5 | 8,5 |
| Kapital operatsiyalar hisobi, debet | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| *Joriy operatsiyalar hisobi va kapital operatsiyalar hisobi saldosi* | -2 849,8 | -2 852,5 | -147,8 |
| **C. Moliyaviy hisob (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari)** | **-303,9** | **-2 402,1** | **-1 870,5** |
| To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar, aktivlar | 10,4 | 10,4 | 90,3 |
| To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar, majburiyatlar | 1 164,5 | 1 147,4 | 1 627,0 |
| Portfel investitsiyalar, aktivlar | 0,2 | 0,0 | 0,0 |
| Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari | 0,2 | 0,0 | 0,0 |
| Qarz instrumentlari | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Portfel investitsiyalar, majburiyatlar | 3,6 | 862,0 | 3 116,6 |
| Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari | 4,0 | -13,7 | -0,9 |
| Qarz instrumentlari | -0,4 | 875,7 | 3 117,5 |
| Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari) | 1,3 | 0,0 | 0,0 |
| Hosilaviy moliyaviy instrumentlar, aktivlar | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Hosilaviy moliyaviy instrumentlar, majburiyatlar | -1,3 | 0,0 | 0,0 |

| Ko‘rsatkichlar | 2023-yil I yarmi | 2024-yil I yarmi | 2025-yil I yarmi |
|---|---|---|---|
| Boshqa investitsiyalar, aktivlar | 1 570,3 | 1 845,0 | 4 541,1 |
| Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari | 0,4 | 0,0 | 0,0 |
| Qarz instrumentlari | 1 569,8 | 1 845,0 | 4 541,1 |
| Markaziy bank | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno | -1 646,4 | 159,6 | 902,3 |
| Davlat boshqaruv sektori | -10,5 | -6,9 | -9,6 |
| Boshqa sektorlar | 3 226,7 | 1 692,3 | 3 648,4 |
| Boshqa moliyaviy tashkilotlar | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo‘jaliklari va UXXKNT | 3 226,7 | 1 692,3 | 3 648,4 |
| Boshqa investitsiyalar, majburiyatlar | 717,9 | 2 248,1 | 1 758,3 |
| Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| MQH taqsimlanishi | 1,8 | -0,1 | -0,6 |
| Qarz instrumentlari | 716,1 | 2 248,2 | 1 758,9 |
| Markaziy bank | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno | 55,7 | 43,8 | 931,0 |
| Davlat boshqaruv sektori | 773,1 | 1 203,1 | 702,8 |
| Boshqa sektorlar | -112,8 | 1 001,3 | 125,1 |
| Boshqa moliyaviy tashkilotlar | 14,0 | 9,2 | -6,6 |
| Nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo‘jaliklari va UXXKNT | -126,8 | 992,1 | 131,7 |
| **D. Sof xatolar va yo‘qotishlar** | **523,7** | **-354,6** | **-748,2** |
| **E. Umumiy balans** | **2 022,2** | **805,1** | **-974,5** |
| **F. Zaxiralar va ular bilan bog‘liq moddalar** | **-2 022,2** | **-805,1** | **974,5** |
| Zaxira aktivlari | -2 021,8 | -866,3 | 913,1 |
| XVJdan sof qarz jalb qilish (XVJdagi zaxira pozitsiyasidan tashqari) | 0,4 | -61,3 | -61,4 |
| Boshqa moliyalashtirish | 0,0 | 0,0 | 0,0 |

*Ushbu statistik hisobot to‘lov balansini tuzish qo‘llanmasining (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) 6-nashrida keltirilgan tahliliy ko‘rinishni aks ettiradi.*

## 2-ilova. 2023-2024 yillar va 2025-yilning I yarmi yakuniga ko‘ra xalqaro investitsiyaviy mavqe

*(tahliliy ko‘rinishi)*

*(mln dollar)*

| Ko‘rsatkichlar | 01.01.2024y. | 01.01.2025y. | 01.07.2025y. |
|---|---|---|---|
| **Aktivlar** | **84 883,5** | **96 624,7** | **108 760,9** |
| **To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar** | **209,9** | **243,8** | **339,9** |
| Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari | 37,1 | 69,0 | 165,1 |
| To‘g‘ridan-to‘g‘ri investorning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari | 37,1 | 69,0 | 165,1 |
| To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kiritilgan korxonaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash) | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Qardosh korxonalar o‘rtasida investitsiyalar | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Qarz instrumentlari | 172,8 | 174,8 | 174,8 |
| To‘g‘ridan-to‘g‘ri investorning to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari | 2,5 | 2,6 | 2,6 |
| To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kiritilgan korxonaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash) | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Qardosh korxonalar o‘rtasida investitsiyalar | 170,4 | 172,2 | 172,2 |
| **Portfel investitsiyalar** | **2,9** | **3,1** | **3,4** |
| Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari | 2,9 | 3,1 | 3,4 |
| Markaziy bank | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari | 1,1 | 1,1 | 1,1 |
| Davlat boshqaruvi sektori | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Boshqa sektorlar | 1,8 | 2,0 | 2,3 |
| Boshqa moliyaviy tashkilotlar | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Qarz qimmatli qog‘ozlari | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Markaziy bank | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Davlat boshqaruvi sektori | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Boshqa sektorlar | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Boshqa moliyaviy tashkilotlar | 0,0 | 0,0 | 0,0 |

| Ko‘rsatkichlar | 01.01.2024y. | 01.01.2025y. | 01.07.2025y. |
|---|---|---|---|
| **Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (oltin valyuta zaxiralaridan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsionlari** | **0,0** | **0,0** | **0,0** |
| **Boshqa investitsiyalar** | **50 106,0** | **55 196,2** | **59 867,8** |
| Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari | 2,0 | 7,0 | 7,0 |
| Qarz instrumentlari | 50 104,0 | 55 189,2 | 59 860,8 |
| Markaziy bank | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari | 3 242,7 | 4 061,9 | 5 078,1 |
| Davlat boshqaruvi sektori | 4,8 | 2,8 | 5,5 |
| Boshqa sektorlar | 46 856,5 | 51 124,5 | 54 777,1 |
| Boshqa moliyaviy tashkilotlar | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| **Zaxira aktivlari** | **34 564,6** | **41 181,6** | **48 549,7** |
| Monetar oltin | 24 632,2 | 32 036,7 | 38 417,8 |
| Qarz olishlarning maxsus huquqlari | 563,0 | 547,3 | 572,4 |
| XVJdagi zaxira pozitsiyasi | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Boshqa zaxira aktivlari | 9 369,5 | 8 597,7 | 9 559,5 |
| **Majburiyatlar** | **72 481,7** | **82 868,3** | **91 815,5** |
| **To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar** | **14 866,9** | **16 746,7** | **18 606,3** |
| Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari | 11 356,8 | 12 201,2 | 13 172,6 |
| To‘g‘ridan-to‘g‘ri investorning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari | 11 356,8 | 12 201,2 | 13 172,6 |
| To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kiritilgan korxonaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash) | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Qardosh korxonalar o‘rtasida investitsiyalar | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Qarz instrumentlari | 3 510,1 | 4 545,5 | 5 433,7 |
| To‘g‘ridan-to‘g‘ri investorning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari | 3 217,4 | 4 093,6 | 4 824,2 |
| To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kiritilgan korxonaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash) | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Qardosh korxonalar o‘rtasida investitsiyalar | 292,7 | 451,9 | 609,5 |

| Ko‘rsatkichlar | 01.01.2024y. | 01.01.2025y. | 01.07.2025y. |
|---|---|---|---|
| **Portfel investitsiyalar** | **5 295,5** | **8 428,9** | **12 074,2** |
| Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari | 123,7 | 117,2 | 120,1 |
| Markaziy bank | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari | 57,5 | 75,1 | 74,7 |
| Davlat boshqaruvi sektori | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Boshqa sektorlar | 66,3 | 42,1 | 45,4 |
| Boshqa moliyaviy tashkilotlar | 1,7 | 1,7 | 2,7 |
| Qarz qimmatli qog‘ozlari | 5 171,8 | 8 311,7 | 11 954,1 |
| Markaziy bank | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari | 1 027,7 | 2 340,4 | 2 444,4 |
| Davlat boshqaruvi sektori | 3 284,9 | 4 049,9 | 5 965,5 |
| Boshqa sektorlar | 859,2 | 1 921,4 | 3 544,2 |
| Boshqa moliyaviy tashkilotlar | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| **Hosilaviy moliya instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsionlari** | **0,0** | **0,0** | **0,0** |
| **Boshqa investitsiyalar** | **52 319,3** | **57 692,7** | **61 135,1** |
| Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Qarz olishlarning maxsus huquqlari (majburiyatlarni sof qabul qilish) | 1 068,8 | 1 037,4 | 1 092,4 |
| Boshqa qarz instrumentlari | 51 250,5 | 56 655,2 | 60 042,7 |
| Markaziy bank | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari | 11 215,2 | 11 680,7 | 13 124,2 |
| Davlat boshqaruvi sektori | 21 353,4 | 25 330,8 | 26 587,1 |
| Boshqa sektorlar | 18 682,0 | 19 643,8 | 20 331,4 |
| Boshqa moliyaviy tashkilotlar | 114,1 | 119,3 | 120,8 |
| **Sof xalqaro investitsiyaviy mavqe** | **12 401,8** | **13 756,5** | **16 945,3** |